O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi

Qarshi Muhandislik Iqtisodiyot Instituti Energetika fakulteti Issiqlik energetika yo’nalishi 132-guruh talabasi Amirqulov Omonjonning informatika va axborot texnologiyalari fanidan yozgan

# REFERAT

Tekshirdi: Qahramonova X

Bajardi: Amirqulov O

**Qarshi 2015**

# PHP dinamik web saytlar.

## REJA:

1. ***PHP haqida umumiy ma’lumot;***
2. ***O’zgaruvchilar va o’zgarmaslar;***
3. ***Massivlar;***
4. ***Arifmetik amallar va ulardan foydalanish;***
5. ***Taqqoslash operatorlari;***
6. ***Mantiqiy amallar;***

Hozirgi kunda ahborot texnologiyalariga bo’lgan talabning ortib borishi bilan bir qatorda web saytlarga bo’lgan ehtiyoj ham kundan kunga ortib bormoqda. Shularni hisobga olgan holda hozirgi kunda web saytlar yaratish uchun har hil dasturlash tillari ko’payib bormoqda. Bulardan eng mashhuri PHP (Personal Home Page).

**PHP** dinamik web saytlar yaratishga mo’ljallangan bo’lib, undagi jarayon klient va server o’rtasida qayta ishlash orqali brauzerga chop etiladi. Bunda yuborilgan so’rov serverda qayta ishlanib so’ngra brauzerga taqdim etiladi. Php kod yozish uchun funksiya yoki amallar

```
<?php
//kodlar
?>
```

ichiga olib yoziladi.

Barcha dasturlash tillarida eng birinchi bo’lib yoziladigan “Hello world” ni phpda yozish uchun quyidagi kodni kiritish yetarli:

```
<?php
echo “Hello world!”;
?>
```

## 1. O’zgaruvchilar va o’zgarmaslar

Php tilida o’zgaruvchilar **$** belgisi bilan boshlanadi. O’zgaruvchi nomi quyidagi qoidalar asosida tanlanishi shart:

1. Biror harf bilan boshlanishi kerak;
2. Bo’sh joy bo’lmasligi kerak;
3. 1-9 gacha bo’lgan sonlar, lotin alifbosidagi harflar va _ chiziqdan foydalanish mumkun;

O’zgaruvchilar sonlar, harflar, turli hil belgilarni qabul qilishi mumkun. A o’zgaruvchini php tilida yozish uchun quyidagi kod yoziladi:

```
<?php
$a = 10;
?>
```

Turli hil qiymatlarni qabul qilgan o’zgaruvchilarni quyidagi kod orqali ko’rishinigiz mumkun.

```
<?php
$hello_world = “Hello world!”; //matn qabul qilgan o’zgaruvchi
$number = 15; //son qabul qilgan o’zgaruvchi
$my_array = array (“Bir”, “Ikki”, “Uch”); // massiv ko’rinishidagi o’zgagruvchi
$my_new_array(“Google”, “Apple”, “Microsoft”, “Facebook”); // yana bir massiv
?>
```

O’zgaruvchilar tavsiflangandan keyin ularni chop qilish uchun quyidagi koddan foydalanamiz:

```
<?php
$hello_world = “Hello world!”;
echo $hello_world;
?>
```

Quyidagi o’zgaruvchilar bir xil emas:

```
<?php
```

```
$a = 10;

$A = 20;

?>
```

Eslatma: Katta va kichik harfdagi registrdagi o'zgaruvchilardan foydalanish tavsiya etilmaydi.

O'zgarmaslarni tavsiflash uchun quyidagi kodni misol sifatida keltiramiz:

```
<?php

DEFINE ("Social", "Facebook");

?>
```

Bu yerda **DEFINE** funksiyasidagi birinchi parametr o'zgarmasning nomi va ikkinchisi uning qiymati.

O'zgarmasni chop qilish uchun quyidagi koddan foydalanamiz:

```
<?php

DEFINE ("Social", "Facebook");

echo Social;

?>
```

## 2. Massivlar

**Massiv** tushunchasini quyidagicha tushunishimiz mumkun:

Biror turdagi narsalarning umumiy jamlanmasi sifatida.

**Masalan:**

**Mevalar:** Olma, anor, shaftoli, nok, o'rik va hokazo.

**Fanlar:** Matematika, fizika, ingliz tili, rus tili va hokazo.

Massivlarni php tilida tasvirlash:

```
<?php
$mevalar = array("Olma", "Anor", "Shaftoli", "Nok", "O`rik");
$fanlar = array ("Matematika", "Fizika", "Ingliz tili", "Rus tili");
?>
```

Massivlarni ikki turga bo'lishimiz mumkun. Bir o'lchovli va ko'p o'lchovli. Bir o'lchovli massivlar yuqorida keltirildi. Ko'p o'lchovli massivlarga misol sifatida quyidagi kodni keltirishimiz mumkun:

```
<?php
$my_array = array(array("Facebook", "Twitter", "Vkontakte"),
                  array("Google", "Bing", "Yandex"),
                  array("Amazon", "Ebay", "Ozon"));
?>
```

Bu massiv turli xil turdagi narsalarni bir o'zgaruvchida jamlagan. Massivlardagi elementlarni chop qilish uchun quyidagi koddan foydalanamiz:

```
<?php
$mevalar = array("Olma", "Anor", "Shaftoli", "Nok", "O`rik");
echo $mevalar[0]; // natijada "Olma" so'zi ekranga chiqadi
echo $mevalar[3]; // natijada "Nok" so'zi ekranga chiqadi
?>
```

Ko'p o'lchovli massivlar ham shu tartibda chop qilinadi.

```
<?php
```

**$my_array = array(array(“Facebook”, “Twitter”, “Vkontakte”),**

**array(“Google”, “Bing”, “Yandex”),**

**array(“Amazon”, “Ebay”, “Ozon”));**

**echo $my_array[0][0]; // natijada “Facebook” so’zi ekranga chiqadi**

**echo $mevalar[2][0]; // natijada “Amazon” so’zi ekranga chiqadi**

**?>**

Agar massiv uch o’lchovli bo’lsa u holda unda chop qilish uchun quyidagi koddan foydalanamiz:

```
<?php

echo $my_array[0][1][2];

?>
```

Yuqoridagi misollarda massivlar tartib raqamlar bilan keltirildi. Va sanoq boshi noldan boshlangani uchun birinchi element 0 sonidan boshlanadi. Massivdagi elementlarni tartib raqamlardan tashqari so’zlar bilan ham ifodalash mumkun. Quyidagi misolda massivlarni so’zlar bilan ifodalangan holda ko’rish mumkun:

```
<?php

$my_new_array = array(“Social” => “Facebook”, “Search” => “Google”, “Shopping” => “Amazon”);

?>
```

Biror elementni chop qilish uchun esa quyidagi koddan foydalanamiz:

```
<?php
```

**echo $my_new_array['social']; //natijada "Facebook" so'zi ekranga chiqadi**

**?>**

### 3. Arifmetik amallar va ulardan foydalanish

Php tilida arifmetik amallardan hisoblashlarni bajarishda foydalanish mumkun.

Arifmetik amallar jadvali:

| Operator | Tavsifi | Misol |
|---|---|---|
| + | Qo'shish | $i+1 |
| - | Ayirish | $i-2 |
| * | Ko'paytirish | $i*3 |
| / | Bo'lish | $i/4 |
| ++ | Birni qo'shish | $i++ |
| -- | Birni ayirish | $i-- |

Arifmetik amalga misol sifatida quyidagi kodni keltiramiz:

```
<?php
$s = 5;
$i = 2*5;
$n = 5+6;
$s++;
echo $i; //natijada "10" soni ekranga chiqadi
echo $n; //natijada "11" soni ekranga chiqadi
echo $s; //natijada "6" soni ekranga chiqadi
?>
```

## 4. Taqqoslash operatorlari

Taqqoslash operatorlari biror narsani boshqa bir narsani taqqoslashda ishlatiladi. Bu amallar odatda mantiqiy ifodalar bilan birgalikda ishlatiladi. Php tilidagi taqqoslash operatorlari bilan quyidagi jadval orqali ko’rib chiqamiz:

| Operator | Tavsifi | Misol |
|---|---|---|
| **==** | **Teng** | $i == 1 |
| **!=** | **Teng emas** | $i != 5; |
| > | **Katta** | $i > 16 |
| < | **Kichik** | $i < 45 |
| >= | **Katta yoki teng** | $i >= 1; |
| <= | **Kichik yoki teng** | $i <= 25 |

## 5. Mantiqiy amallar

Mantiqiy amallar biror shart asosidagi amallarni bajarishda ishlatiladi. Masalan: Agar ertalabki soat 8 bo’lgan bo’lsa u holda maktabga borish kerak. Agar soat 14 bo’lgan bo’lsa u holda uyga qaytish kerak. Agar soat 19 bo’lgan bo’lsa darslarni qilish kerak, aks holda uhlash kerak.

Shunga o’xshash amallarni bajarishda mantiqiy amallardan foydalanamiz. Php tilidagi mantiqiy amallarni quyidagi jadval orqali ko’rib chiqamiz:

| Operator | Tavsifi | Misol |
|---|---|---|
| **&&** | **Va** | $i == 2 && $j == 3 |
| **And** | **Va** | $i == 2 and $j == 3 |
| **Or** | **Yoki** | $i < 10 or $i > 12 |
| \|\| | **Yoki** | $i < 10 \|\| $i > 12 |
| **!** | **Emas** | !$i |

Mantiqiy amalga quyidagi kodni misol qilamiz:

```
<?php
    $i = 1;
    $j = 5;
    If ($i == $j) then {
        echo “Teng”;
    }
    else {
        echo “Teng emas”;
    }
?>
```

Asosiy funksiyalar.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Aripov M.M., Yakubov A.X., Sagatov M.V., Irmuhamedova R.M. va boshqalar.Informatika. Axborot texnologiyalari.. O’quv qo’llanmasi. 1,2-qism. Toshkent:2005,394b.
2. Aripov M.M., Yakubov A.X., Sagatov M.V., Irmuhamedova R.M. va boshqalar.Informatika. Axborot texnologiyalari.. O’quv qo’llanmasi. 1-qism. Toshkent:2005,334b
3. Шамис В.А. Borland СИ++ Builder 6. Для профессионалов.-СПб.: Питер,2004.-798

**Php.net**
**Ziyonet.uz**